

**Amir Temur va Temuriylar davrida xiroj solig`i va uni
yig`uvchi amaldorlar**

Turdaliyeva Gulasalxon Abdusalom qizi

FDU Tarix fakulteti, Mustaqil izlanuvchi doktorant

Gulasalturdaliyeva886@gmail.com 998996004284

***Annotatsiya:** Amir Temur va temuriylar davrida aholidan yig`iladigan xiroj miqdori va bu soliqni yig`ish tartib-qoidalari, miqdori haqida ma`lumotlar tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida yozildi.*

***Kalit so`zlar:** Muzoriy, qaloqchi, omil, yasoqiy, kalontor, aminlar, obikor, lalmikor.*

Kirish: Amir Temur va Temuriylar davrida Xuroson va Movarounnarda shahar va qishloqlarida obodonchilik va bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Mavjud sug`orish tarmoqlari ta`mirlash va kengaytirish, yangi ariqlar qazilib, obodonlashtirish ishlariga katta e`tibor qaratilgan. Dehqonchilik vohalarining suv ta`minoti tartibga solingan. Dashtlarga suv chiqarilib yer maydonlari o`zlashtirilgan. Bu borada xususiy sohibkorlarning dasht joylaridan yangi yerlarni ochish, korizlar qazib, bog` barpo qilish va qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni sug`orib obod etish uchun amalga oshirilgan har qanday faoliyati temuriylar tomonidan qo`llab-quvvatlangan. Hatto bunday sohibkorlar bir-ikki yil davomida barcha soliqlardan ozod qilingan.

Asosiy qism: XV asrda Movarounnahr va Xurosonda yer egalarini dehqonlar, ekin maydonlariga ishlov beruvchilarni esa muzoriy (ziroatkor) deb yuritilgan. Ziroatchilar qishloqning mehnatkash tabaqasiga mansub bo`lib, ular to`rt guruhga bo`linganlar: 1. Davlat yerlarida ishlovchi muzoriy, 2. Mulkdorlarning mulkida ishlovchi muzoriy, 3. O`z yeriga ega bo`lgan dehqonlar yerida ishlovchi muzoriy, 4. Vaqf yerlarida ishlovchi muzoriylarga

bo`lingan. Dehqonchilik yerlaridan olinadigan asosiy soliq xiroj (mol) deb atalgan. Xiroj asosan hosil yetilib, uni yig`ib olish vaqtlarida mahsulot bazan, pul holida bazan esa yetishtirilgan mahsulot bilan natural holatda to`langan. Soliq hosilga va yerning unumdorligi hamda suv bilan ta`minlanganligiga qarab belgilangan. Chunonchi daryo, buloq, koriz suvlari bilan sug`oriladigan obikor yerlardan xiroj hosilining $\frac{1}{3}$ qismi miqdorida olingan. Agar yer egasi xirojni pul hisobida to`lashga rozi bo`lsa, unda hosilning $\frac{1}{3}$ qismi miqdorida bozor narxi hisobida pulga chaqilgan. Masalan 1461-yilda Sulton Abu Said vazirlari Xo`ja Muhiddin Sheroziy va Xo`ja Mavlono Amiriy Samarqandiyini Movarounnahrga yuborib ularga dudang ya`ni $\frac{2}{6}$ (33.3%) miqdorida xiroj olishni buyuradi. Agar hosilning cho`g`i o`rtachadan pastroq bo`lsa, xiroj $\frac{2}{9}$ ya`ni 22 % miqdorida to`langan[1].

Lalmikor yerlarning unumdorligi obikor yerlarga nisbatan past bo`lgani uchun lalmikorlik bilan mashg`ul bo`lgan muzoriylar umumiy hosilning $\frac{1}{6}$ ya`ni 16/5%da, $\frac{1}{8}$ ya`ni 12/5% gacha miqdorda soliq to`laganlar.

Bo`rivoy Ahmedovning “Sohibqiron Amir Temur” nomli kitobida yozilishicha xiroj olinadigan yer-suv odatda 3 darajaga bo`lingan. Birinchi darajali yerlardan xiroj hosilning $\frac{1}{4}$ qismi, ikkinchi darajali yerlardan ikki harvor, uchinchi darajali maydonlardan bir xarvor miqdorida belgilangan. Agar raiyat yuqorida ko`rsatilgan 3 usulda soliq to`lashga rozi bo`lmasa, u holda bir xarvor bug`doyiga 5 misqol kumush, bir xarvor arpasiga 2,5 misqol kumush miqdorida narx qo`yilgan[2]. Amir Temur va Temuriylar davrida soliqlarni adolatli qilib belgilash va qoidaga binoan olish qattiq nazorat qilingan. Bu bilan oddiy xalq raiyatni qiyin ahvolga tushurib qo`yishdan saqlanganlar. Bu davrda davlat boshqaruvida mahalliy erkin jamoalar va mahalla oqsoqliliklari katta rol o`ynagan. Amir Temur milliy odatlarga amal qilib, soliqlarni yig`ish va boshqa masalalarda jamoa va

mahalla oqsoqliklarining mustaqil fikrlarini inobatga olgan. Bu davrda xiroj solig`ini yig`uvchi amaldorlarni qaloqchi, omil, yasoqiy, kalontor, aminlar nomlari bilan atashgan. Qaloqchi – hosilga qarab xiroj miqdorini aniqlab beruvchi amaldor hisoblangan bo`lib, uning maoshi xizmatiga yarasha bo`lib, mingdan 10 ming miqdorigacha bo`lgan[3]. Yasoqiy – soliq yig`uvchi amaldor. Yasovul yasoni amalga oshiruvchi mansabdor bo`lib, ular sarboz deb ham atalgan. Davlat ma`muriyat tizimida yasoqiylar ham katta ahamiyat kasb etganlar. Davlat boyligi, ravnaqining manbai soliq va xirojlarning kamchiliksiz xazinaga kelib tushishi, ularning halolligiga bog`liq bo`lgan. Ularning zimmasiga xalqni qiynamasdan va shuningdek davlatni ham unutmashlik, qonundan chetga chiqmaslik vazifalari yuklatilgan[4].

Omil – soliq yig`uvchi amaldor. Kalontor – shahar hukmdorlaridan biri. Nufuzli kishilar bo`lib qishloq oqsoqollari ham shunday atalgan. Aminlar – (ishonchli kishilar) ular moliya va qishloq xo`jaligini boshqarish ishlari bilan shug`ullangan mahalliy kichik ma`murlardir. Ular mahalliy hududlarda ekin yerlari, soliq yig`ish, u yerlarni nazorat qilish huquqi va vakolatiga ega bo`lgan. Shuningdek ulardan o`z vazifasini sidqidildan bajarish talab qilingan. Bu davrda biron-bir amaldor o`z vazifasini suistemol qilib, belgilangan ortiq soliq va yig`imlarni xalqdan yig`ib olgan puli, o`z maoshidan ikki barobaridan ortiq bo`lsa, ortig`i nabatdagi maoshidan ushlab qolingan, uch barobar ko`p bo`lsa hammasini saltanat xazinasiga tortiq qilingan. Soliq yig`uvchi amaldorlar imkon qadar o`zlariga belgilangan hududlarda aholidan ko`proq soliq va yig`imlarni undirib olishga harakat qilganlar. XII asrning mashxur mutaffakiri Sadiy Sheroziyning quyidagi so`zlarini keltirish o`rinlidir “agar hukmdor o`z fuqarosining bog`idan bir dona olma olib tanovul qilsa, uning yaqinlari olma daraxtining ildizi bilan bilan ko`chirib ketadilar, agar hukmdor xalqning besh dona tuxumini qonunsiz olsa, uning askarlari xalqning minglab tovug`ini sixga tortib yuboradilar”. Shuning uchun ham Temur va uning ba`zi bir vorislari davrida soliq miqdori va to`lovlar tartibini buzmaslikka harakat qilganlar. Bu davrda

o`z vazifasini bajaraolmagan amirlarga Amir Temur tomonidan ayollar taqinchog`i yoki yelpig`ichini jo`natilsa bu hol amaldorni ishdan bo`shatilganini bildirardi[6]. O`zboshimchalik qilib xalqdan belgilangandan ko`p miqdorda soliqlarni undirib oluvchi amaldorlar soni kundan-kunga ortib boravergan. Misol uchun Sulton Husayn Mirzo hukmronligi davrida uning amaldorlari aholiga favqulodda soliq solgani uchun 1470-yilda Muhammad Yodgor boshchiligida Hirot aholisi qo`zg`alon ko`taradi. Navoiyning sa`y-harakatlari va o`zboshimcha ma`murlarni jazolanishi bilan qo`zg`alon bostiriladi. Sulton Husayn farmon chiqarib Hirot va uning atrofida yashovchi dehqonlar, muzoriylar va hunarmandlari ikki yilga soliqlardan va qo`shinni boqish uchun to`lanadigan to`lovlardan ozod qilishga majbur bo`ladi[7].

Xulosa: Soliqlar har doim davlat daromadining asosiy manbai bo`lib xizmat qilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida ham dehqonchilik maydonlaridan olinadigan xiroj solig`ini adolatli olish, dehqonlar va muzoriylarni qiyin ahvolga solib qo`yishdan soliq yig`uvchi amaldorlarni qaytarganlar. Chunonchi hosil hali pishib yetilmasdan turib amaldorlarni dehqonlardan soliq olishlari qat'iy man etilgan. O`z mansabidan foydalin dehqonlardan ortiqcha soliq va to`lovlarni undirgan amaldorlar temuriylar tomonidan qattiq jazolangan. Soliqlarni o`z vaqtida yig`ib, davlat xazinasiga yetib borishini nazorat qiluvchi amaldorlarga hukmdorlar tomonidan alohida sovg`a va hadyalar berilgan.

Foydalanilagn adabiyotlar ro`yhati

1. A. Muhammadjonov Temur va Temuriylar saltanati (tarixiy ocherk), T.,1994, 95-b.
- 2.Bo`riboy Ahmedov Sohibqiron Temur, T.,1996, 77-b.
- 3.Temur tuzuklari T;,"shodlik", 2018, 91-b.
4. Sh O`ljayeva Amir Temur va Temuriylar davrida milliy davlatchilikni rivojlanishi, T;,"Fan", 2005, 121-b.

5. Erkin Azamov Amir Temur saltanati, Tarixiy risola, T; „Ga`fur Gulom” 1996, 240-b.

6. A Muhammadjonov Temur va Temuriylar saltanati, (tarixiy-ocherk), T; 1994, 99-b.